

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Xorijiy tillarni o‘rganishni**  
**ommalashtirish agentligi**  
**direktor o‘rinbosari**



**A.Husanov**

**2022 yil**

IP telefoniya boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha bajaruvchi tashkilotga  
talab etiladigan xizmatlar va hujjatlar ro'yxati

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLAB OLISH TARTIBI**

**TOSHKENT-2022 yil**

## UMUMIY MA'LUMOTLAR

### **Eng yaxshi takliflarni tanlab olish predmeti**

Xarid komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RK-684-sonli Qonuni va Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3016, 26.05.2018 y.)ga asosan amalga oshiradi.

### **Eng yaxshi takliflarni tanlab olishni tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:**

Eng yaxshi takliflarni tanlab olishni o'tkazish ochiq turda bo'lib, IP telefoniya boshqaruv tizimini o'rnatish hamda virtual muhit yaratib kerio nazorati va fayrvol o'rnatib, IP telenfonlarni markaziy boshqaruv tizimiga ulash bo'yicha ishlarni bajarish yuzasidan tanlashni o'tkazish ko'zda tutilgan.

Xizmatlarning boshlang'ich narxi va bajariladigan ishlarning tafsiloti texnik topshiriqda ko'rsatilgan.

Xizmat ko'rsatish muddati: 1 kun.

**Buyurtmachi** – Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi

Manzili: Toshkent shahar Uchtepa tumani G-9 21A-uy

Tanlovni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul komissiya a'zolari:

### **Komissiya raisi:**

Direktor o'rinbosari A.Husanov

### **Komissiya a'zolari:**

Kadrlar bo'yicha inspektor M.Vaxobov

Axborot texnologiyalari va reyting sektori boshlig'i A.Sattorov

Buxgalteriya va xo'jalik ta'minot bo'limi boshlig'i B.Sultonov

Yuriskonsult Javdatbek Shavkat o'g'li

Bosh mutaxassis A.Abdullayev

Tel.: (97) 540-02-20

### **Davlat buyurtmachisi**

Mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalb etgan holda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang'ich narxini belgilash, bunda: qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

davlat xaridlarini amalga oshirishda <https://etender.uzex.uz/> Veb-sayt portaliga va o'zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga e'lon joylashtirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan eng yaxshi takliflarni tanlashni, tenderni o'tkazishda davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) tuzish va (yoki) shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan zaklat yoki bank kafolatini kiritishni talab qilish;

xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan ularga murojaat qilish huquqiga ega!

Davlat buyurtmachisi qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi:

Davlat xaridlarini rejalashtirishi;

ushbu Qonunga muvofiq xarid qilish tartib-taomili turini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishning davlat xaridlari to'g'risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda mahsus axborot portaliga joylashtirishi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining tovarlar (ishlar xizmatlar) va davlat xaridlarining tartib-taomillari bilan bog'liq so'rovlari bo'yicha ularga qonunchilikka muvofiq tushuntirishlar berishi;

xarid qilish tartib-taomillarining g'olib deb topilgan ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzishi, shuningdek ularning ijro etilishini ta'minlashi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda kafillanganlik to'g'risidagi axborotni taqdim etishi;

bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdiridagina maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimi <https://etender.uzex.uz> ga va ommaviy axborot vositalariga joylashtirishi shart.

### **Xarid komissiyasi**

Xarid komissiyasi qo'yidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish targ'ib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi; xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

### **Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik**

Insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;

monitoring va nazorat o'tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o'tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to'g'risidagi ma'lumotlar axborotning ochiq manbalarida e'lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

### **Ishtirokchi**

davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

davlat buyurtmachisiga yoki ushbu buyurtmachi tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o'tkazish talablari va shartlari bo'yicha so'rovlar berish damda ulardan tushuntirishlar olish;

xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

qonunchilikka muvofiq takliflarga o'zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega;

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'lishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi;

g'olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

### **Ishtirokchiga tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablar va taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar**

Ishtirokchi takliflarni tayyorlaydi va xarid komissiyasiga taqdim etadi. Ularning faoliyatini baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etadi (Xarid komissiyasining so'roviga ko'ra).

Ishtirokchilarning malaka ko'rsatgichlari va berilgan takliflari Xarid komissiyasi tomonidan baholanadi.

Ishtirokchilar quyidagi hujjatlar yordamida malaka ko'rsatgichlari va takliflarni taqdim etishi lozim:

-korxonalar va tashkilotlarining kichik yoki yirik biznes subyektlariga tegishlilik to'g'risidagi ma'lumotnoma;

-yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomaning nusxasi;

-tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan loyiha ishlarini olib borish huquqini beruvchi litsenziya nusxasi;

-Tanlovda ishtirok etish uchun ariza (1 -shakl);

-Ishtirokchi qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik sudida tortishuv holatida emasligi, shuningdek avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha kerakli tarzda bajarilmagan majburiyatlar yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (2-shakl);

Ishlab chiqarish bazasi va ofisi borligi (o'z balansida bo'lsa kadastr hujjatlari, ijara bo'lsa ijara shartnoma, viloyat hududida bo'lishi shart);

Ishtirokchi tanlov takliflarini tayyorlash va taqdim etish davomida sarflangan barcha moliyaviy xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi.

Tanlovda g'olib chiqqan taqdirda buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi.

**Tanlash g'olibi** - takliflarni balli metodda baholash yakunlari bo'yicha tanlashda eng yaxshi taklif bergan ishtirokchi g'olib bo'ladi.

**Zaxiradagi g'olib** - eng yaxshi takliflarni tanlashda g'olibdan keyingi o'rinda turgan past ball to'plagan ishtirokchi.

#### **Tanlashda quyidagi ishtirokchilarning takliflari rad etiladi:**

-yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnoma, loyiha ishlarini olib borish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lmagan;

-shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslari mavjud bo'lmagan;

-shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqiga ega bo'lmagan;

-insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

-ishlab chiqarish bazasi, ofisi bo'lmasa (boshqa viloyat hududida bo'lsa);

-solliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorliklar mavjud bo'lsa;

-buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik sudida tortishuv holatida bo'lsa;

-avvalgi buyurtmalarda imzolangan shartnomalar bo'yicha kelishilgan majburiyatlarni o'z muddatida bajarmagan bo'lsa;

Buyurtmachi qo'yidagi hollarda ishtirokchini xarid tartib-taomillarida qatnashishdan chetlashtiradi, agar:

-ishtirokchi bevosita yoki bilvosita mijozning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsni yoki xodimini yoki boshqa davlat organining har qanday shaklda mablag', ish taklifini yoki boshqa har qanday qimmatbaho buyumlarni yoki xizmatlarni taklif qilishi, berishi yoki berishga rozi bo'lganligi - yoki xaridorning davlat xaridlari jarayonida harakatlari yuzasidan qaror qabul qilishi yoki har qanday raqobat tartibini qo'llashi;

-ishtirokchi qonunga xilof ravishda adolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa.

### **Maxfiylik**

Davlat buyurtmachising yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining xodimi o'zining davlat xaridlari ijrochilari yoki har qanday boshqa shaxs bilan munosabatlarida, agar bunday axborotni oshkor etmaslik davlat xavfsizligi manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa yoki agar bunday axborotning oshkor etilishi qonunchilikka zid bo'lsa, ularga rioya etilishini ta'minlashga monelik qilsa, davlat xaridlari subyektlarining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazsa yohud insofli raqobatga to'sqinlik qilsa, agar davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilmasa, hech bir axborotni oshkor etishga haqli emas.

Davlat xaridlari sodasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu qarorning shartlariga rioya etiladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib- taomilida ishtirok etib, uning xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etishi bilan bog'liq taklifda o'zi ko'rsatgan barcha ma'lumotlarning e'lon qilinishiga rozilik bildiradi.

### **Tanlash hujjatining tarkibi**

Ishtirokchi unga berilgan tanlash hujjatini va shu bilan birga barcha ko'rsatmalar, shakllar, shartlar va texnik tafsilotlarni to'liq o'rganib chiqishi shart.

Tanlash hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan barcha talab qilingan ma'lumotlarni bermaslik yoki taklifning tanlash hujjatlari talablariga to'liq to'g'ri kelmasligi, taklifning qabul qilinmasligiga olib keladi.

### **Tanlash hujjatlariga aniqlik kiritish**

Hujjatlarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar Ishtirokchi tanlash hujjatlariga qandaydir aniqlik kiritish uchun tanlov komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin:

Komissiya ishtirokchining so'roviga ko'ra Takliflarni taqdim etishning so'nggi muddatidan kamida 3 kun oldin so'rov manbasini ko'rsatmagan holda tanlashning barcha qatnashchilariga majburiy tartibda javob yuborib, tanlash hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq savolga yozma javob berishi shart.

### **Tanlash hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi

e'lona o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

### **Tanlashda qatnashish xarajatlari**

Tanlashda ishtirok etish va tanlash hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ishtirokchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Narx taklifida ko'rsatilgan narx tanlash taklifi narxi hisoblanadi.

Tanlov taklifi narxi milliy valyuta - so'mda to'lanishi lozim.

Mahsulot (xizmat, ish) narxi (taklif) ga barcha xarajatlar, ya'ni soliq hamda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar kiritiladi.

Ishtirokchi tomonidan belgilangan narxlar mahsulotni yetkazib berish (xizmatlarni ko'rsatish) majburiyatlarini oxiriga yetkazilmagunga qadar o'zgartirilmaydi (tanlov komissiyasining narxlarni tushirish bo'yicha- muzokaralar olib borish natijasida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin).

Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi tanlash takliflari istalgan bosqichda tanlash talablariga javob bermaydi deb qaraladi va komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

### **Tanlashda qo'llaniladigan til**

Ishtirokchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi ishtirokchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar o'zbek tilida tayyorlanadi.

### **Tanlash ishtirokchilarining takliflarni berish tartibi**

Tanlash ishtirokchilarining takliflari e'londa va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o'tkazish to'g'risida: e'londa ko'rsatilgan <https://etender.uzex.uz/> portaliga elektron tartibda kiritiladi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

### **Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish**

Ishtirokchi tanlash taklifini qat'iy ravishda mazkur tanlash hujjatlari asosida taqdim etishi lozim.

Tanlash taklifi shakllaridagi barcha bo'sh grafalar tanlash hujjatlari talablari asosida to'ldirilishi zarur.

Ishtirokchi taklif etilayotgan mahsulot (xizmat) uchun narx taklifini tanlash taklifi shakli asosida taqdim etishi lozim.

### **Muqobil takliflar**

Past texnik (funktional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

## **Tanlash takliflarini rasmiylashtirish va imzolash**

Tanlashda qatnashish uchun ishtirokchi o'zining ERI kaliti bilan onlayn tarzda qatnashadi.

### **Tanlashni o'tkazish**

Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran uch ish kunidan oshishi mumkin emas.

### **Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon**

Tanlash vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra — uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lonni va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmachisi tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni ushbu moddaning uchinchi qismida belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon qo'yidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak:

tanlashni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;

tanlash o'tkaziladigan joyning manzili;

ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt; taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.



Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotlarni xam o'z ichiga olishi mumkin.

Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddatiga 3 kun qolgunga qadar tanlov qatnashchisi o'z takliflarini qaytarib olishi yoki taklifga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Tanlov qatnashchisi tomonidan tanlov hujjatlarida talab etilgan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmasligi yoki mazkur tanlov hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar ko'rib chiqilmaydi va rad etiladi.

### **Tanlash takliflarini baholash va g'olibini aniqlash**

Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Komissiya tanlash takliflarini texnik, tashkiliy-moliyaviy va tijorat jihatdan baholash tanlash komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya tanlash hujjatlari shartlariga mos kelmaydigan har qanday takliflarni qabul qilish yoki rad etish huquqini o'zida olib qoladi.

Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga o'tkazilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiqtirmay joylashtiriladi.

### **Tanlash quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'lon qilinadi**

tegishli lot bo'yicha tanlov takliflarini taqdim etishning eng oxirgi muddatigacha taklif tushmasa yoki faqat bitta taklif tushsa;

barcha tanlov takliflari tanlov hujjatlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmasa;

barcha tanlov takliflarida tanlov hujjatlari shartlari bilan talab qilinadigan hujjatlar mavjud bo'lmasa;

barcha qatnashchilarning taklif etgan narxlari tovarning (ishning, xizmatning)ning boshlang'ich qiymatidan yuqori bo'lsa.

Tanlashning bo'lib o'tmagan, deb e'lon qilinishi ishtirokchilardan biron-birining mulkiy yoki boshqa javobgarligiga olib kelmaydi.

### **Tanlash natijalarini rasmiylashtirish**

Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan xollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, davlat buyurtmachisi ushbu Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

#### **Komissiya a'zolari:**

Kadrlar bo'yicha inspector



Vaxobov M.M

Axborot texnologiyalari va  
reyting sektori boshlig'i



Sattorov A.A

Buxgalteriya va xo'jalik  
ta'minot bo'limi boshlig'i



Sultonov B.X

Yuriskonsult



Shavkat o'g'li Javdatbek

Bosh mutaxassis



Abdullayev A.S

**(Ishtirokchining firma blankasida)**

№ 2022 yil

o'rganishni  
agentligi

Xorijiy tillarni  
ommalashtirish  
Tanlov komissiyasiga

**ARIZA**

Toshkent shahar \_\_\_\_\_ firmasining  
Yagona elektron baza hujjatlarini tayyorlashni amalga oshirish (LOT  
raqami) bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarni o'rganib chiqib, ushbu  
hujjat bilan ularning olinganligini tasdiqlagan holda, qatnashuvchi loyiha tashkiloti  
nomi taklif hujjatlariga muvofiq mazkur tanlashda ishtirok etmoqchimiz.

Shu munosabat bilan taklif hujjatlarini yo'llamoqdamiz.

Malakaviy hujjatlar, shuningdek, tanlov taklifida keltirilgan ma'lumotlar va  
hujjatlar to'liq va ishonchli ekanligini kafolatlaymiz.

Muloqot uchun telefon/faks:

Loyiha tashkiloti nomi va rahbari  
direktori

**(Qatnashchining firma blankasida)**

**(Firma nomi)**

**Tanlov komissiyasiga**

### **KAFOLAT XATI**

Ushbu bilan shuni tasdiqlaymizki, loyixa tashkiloti nomi

Qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik holatida emas (bank ma'lumotnoma taqdim etishi shart)

Sudda yoki hakamlik sudida tortishuv holatiga emas;

Avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha kerakli tarzda bajarilmagan majburiyatlari yo'qligini;

Soliqlar va boshda majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi mavjud emas (ma'lumotnoma taqdim etishi shart)

Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikka;

Buyurtmani belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini;

Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxati (<http://xarid.uz/unfairexecutor>) mavjud emasligimizni kafolatlaymiz.

Loyiha tashkiloti nomi va rahbari

direktor \_\_\_\_\_

(F.I.Sh.)